



YILNING

**ENG YAXSHI YORDAMCHI AGENTI**

**2025**

TANLOV BO'YICHA AGENTLAR UCHUN QO'LLANMA

## TANISHTIRUV

Hurmatli hamkasblar, aziz do'stlar! Sizlarni samimiy qutlaymiz va bu yilgi tanlov safarida siz bilan birga bo'lishimizdan mamnunmiz. Ushbu tanlov — nafaqat o'z mahoratingizni namoyish etish, balki yangidan yangi tajribalar orttirish, bilimlaringizni kengaytirish va hamfikrlar bilan tanishish imkoniyatidir

Sizlarning yutuqlaringiz uchun sizlarni rag'batlantirishdan mamnunmiz – har bir mehnat munosib taqdirda loyiq!

Biz sizlarni tanlovda faol ishtirok etishingizdan xursand bo'lamiz va har biringizni qo'llab-quvatlashdan mamnunmiz. Taqdim etilayotgan qo'llanmada tanlov bo'yicha batafsil yo'riqnomalar, ishtirok etish qoidalari, baholash mezonlari va sovrinlar haqida ma'lumotlarni topasiz.

## BARCANGIZGA OMAD TILAYMIZ!



# TANLOV HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

**O'tkazilish muddati:** Avgust - Noyabr

Tanlov 4 bosqichdan iborat bo'lib, 14 ta hudud, 208 tuman va shaharlarni qamrab olgan holda 9008 nafar agent ishtirokida bo'lib o'tadi.

**Maqsad:** Tanlov yordamchi agentlar o'rtasida mahallalarda bank xizmatlari ommabopligini oshirish va aholining moliyaviy savodxonligini yaxshilash maqsadida o'tkaziladi.

## **Arizalarni qabul qilish:**

Video va insholar telegram orqali hududiy boshqarmalarning «Agentlar konkursi 2025 (hudud nomi)» guruhlariga yuboriladi.

**Qabul qilish muddati:** 12 avgustdan 20 avgustgacha.

Tanlov natijalari Markaziy bankning rasmiy kanallarida e'lon qilinadi.

Materiallarda uchinchi shaxs huquqlariga daxldor yoki qonunga zid ma'lumotlar bo'lmasligi shart.



# 1-BOSQICH: SARALASH (AVGUST)

## NIMA QILISH KERAK?

### SHARTLAR:

- 1 Men nechun agentman?** — mavzusida qisqa video yoki insho yuborish
- 2 Eng ko'p bank kartasi ochilgani soni** — 16 yoshdan oshgan, bank hisob varag'iga ega bo'lmagan aholiga (2025 yil may-avgust oylarida) ochilgan kartalar
- 3 Yordamchi agent ko'magida (2025-yil may-avgust oylarida) jalb qilingan bank mijozlari soni**

### TALABLAR:

Taqdim etilgan videoroliklar dastlab hududiy Markaziy bank va tijorat banklari vakillari tomonidan ko'rib chiqiladi.

**1.1** Video (ism, familiya, mahalla nomi, agent bo'lishi sababi) vertikal shaklda, agentning yuzi yaxshi ko'rinadigan tarzda olinishi lozim. Video davomiyligi – **30** sekundgacha.

**1.2** Insho kamida **250ta** so'zdan iborat bo'lib, inshoga agentning rasmi ham birlashtirilgan bo'lishi lozim. Insho qo'lda yoki elektron shaklda yozilgan bo'lishi mumkin. Inshoga quyidagilar yozilishi lozim: ism, familiya, mahalla nomi, agent bo'lishi sababi.

**2**-mezon bo'yicha ma'lumotlar avtomatik tarzda shakllanadi;

**3**-mezon bo'yicha ma'lumotlar Markaziy bank viloyat bosh boshqarmalari tomonidan tijorat banki ma'lumotlari asosida shakllanadi.



# 1-BOSQICH: SARALASH (AVGUST)

## QANDAY BAHOLANADI? BAHOLASH MEZONLARI (MAKSIMAL 26 BALL):

### 1-SHART (6 ball)

- Ism, familiya, mahalla nomi aniq aytilsa – **1 ball**.
- Agent bo'lish sababi aniq va tushunarli aytilsa – **2 ball**.
- Agar video/insho boshqalarni ruhlantiradigan, motivatsiya beradigan tarzda bo'lsa – **3 ball**.

### 2-SHART 2025-yilning may-avgust oylarida ochilgan bank kartalari soni (10 ball)

- 10-100 ta karta ochgan bo'lsa – **2 ball**;
- 100-200 ta karta ochgan bo'lsa – **4 ball**;
- 200-300 ta karta ochgan bo'lsa – **6 ball**;
- 300-400 ta karta ochgan bo'lsa – **8 ball**;
- 400 va undan yuqori miqdorda karta ochgan bo'lsa – **10 ball**.

### 3-SHART 2025-yilning may-avgust oylarida jalb qilingan bank mijozlari soni (10 ball)

- 5 ta jalb qilingan bo'lsa – **2 ball**;
- 6-10 ta jalb qilingan bo'lsa – **4 ball**;
- 11- 15 ta jalb qilingan bo'lsa – **6 ball**;
- 16-20 ta jalb qilingan bo'lsa – **8 ball**;
- 21 va undan yuqori miqdorda jalb qilingan bo'lsa – 10 ball.

## MASLAHATLAR:

Siz «Men nechun agentman?» mavzusida ikki variantdan birini tanlaysiz:

- 30 sekundlik video — o'z yuzingiz ko'rinadigan, vertikal shaklda (telefoningizni tik tutgan holda olingan) video bo'lishi kerak. Video ichida o'zingizni tanishtirasiz (ism, familiya, mahalla nomi), nima uchun agent bo'lganingizni qisqacha aytasiz;
- 250 so'zdan kam bo'lmagan insho — o'zingiz haqida, nega agent bo'lganingiz haqida yozasiz. Insho qo'l bilan yoki kompyuterda yozilishi mumkin. Inshoga o'zingizning rasmingiz ham ilovalinishi kerak.

Motivatsion video yoki insho — bu sizni o'z ishingizga bo'lgan ishtiyoqingiz, agentlik faoliyatingiz sizning uchun qanday ahamiyatli ekanligi va boshqalarni ham shunga undashga chaqirish his-tuyg'ularingizni ifodalashdir. Masalan, nima uchun bu ishni sevishingizni, odamlar uchun qanday foydali ekanligingizni aytasiz. Oddiy, samimiy va o'zingizning so'zlaringiz bilan bo'lishing.

### Video va insholar qayerga yuboriladi?

Hududingizdagi Markaziy bank va tijorat banklari vakillarining tashkil etgan Telegram guruhlariga.

## 2-BOSQICH: TUMAN BOSQICHI (SENTYABR)

# NIMA QILISH KERAK?

### SHARTLAR:

- 1** **Biznesga yo'naltirilgan bank mahsulotlari targ'iboti**
- 2** **Firibgarlardan ogohlikka chaqirish**
- 3** **Omonatlar bo'yicha**

Berilgan uchta mavzudan bir donasi siz uchun hakamlar tomonidan tanlanadi. Siz aholi orasida bir oy davomida targ'ibot qilishingiz kerak bo'ladi. 30 tagacha xonadon/maktab/bozorda (mahallada) targ'ibot o'tkazishingiz kutiladi.

### TALABLAR:

O'z targ'ibot ishlaringizni ijtimoiy tarmoqlarda (**Instagram, Facebook, Telegram kanallar**) yoritib borishingiz zarur.

Umumiy **1 oylik** o'tkazilgan targ'ibotlar bo'yicha har bir borgan joyingizdan **fotolavhalarni** Markaziy bank viloyat bosh boshqarmalarida ochilgan telegram guruhga yuborishingiz lozim.

Shuningdek, mahallada yashovchi aholidan 2 dona tavsiyanoma (yozma yoki video shaklda) olishingiz kerak.

### QANDAY O'TKAZILADI?

Har kuni yoki har hafta belgilangan joylarga borib, odamlar bilan suhbat qilasiz.

Suhbatlar, targ'ibot natijalari haqida rasm yoki video shaklida dalillar tayyorlaysiz.

Ushbu dalillarni (fotolar, video, tavsiyanomalar) Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasining Telegram guruhiga yuborasiz.

Mahalladagi kamida 2 kishidan yozma yoki video tavsiya xati olishingiz kerak — ular sizning targ'ibotingiz foydali bo'lganini tasdiqlaydi.

## 2-BOSQICH: TUMAN BOSQICHI (SENTYABR)

### QANDAY BAHOLANADI? BAHOLASH MEZONLARI

(MAKSIMAL 35 BALL):

- 25-30 ta joyda targ'ibot o'tkazilgan bo'lsa 25 ball;
- 19-24 ta joyda targ'ibot o'tkazilgan bo'lsa 20 ball;
- 13-18 ta joyda targ'ibot o'tkazilgan bo'lsa 15 ball;
- 7-12 ta joyda targ'ibot o'tkazilgan bo'lsa 10 ball;
- 1-6 ta joyda targ'ibot o'tkazilgan bo'lsa 5 ball.

#### Qushimcha

- Xar bir tavsiyanoma qo'shimcha 3 ball (2 ta tavsiyanoma uchun 6 ball), ijtimoiy tarmoqlarda yoritilsa 4 ball;
- Viloyat bosqichiga 208 nafar ishtirokchi o'tadi.

### MASLAHATLAR:

**Misol uchun:** Targ'ibot — bu odamlar bilan suhbatlashib, mavzuni tushuntirish, savollarga javob berish, ularga foydali ma'lumot berishdir. Targ'ibotni maktab, bozor, xonadon va mahallalarda o'tkazishingiz mumkin. Shuningdek, mahalla raisi bilan birga mahalla bo'ylam sizga berilgan mavzular bo'yicha odamlarga aytib berishingiz, Yoki maktabga borib 10 daqiqalik darslar o'tishingiz, yoki ota-onalar bilan suhbat o'tkazishingiz mumkin.

Shu bilan birga noodatij tarzda telegram guruhlariga audiolar yuborish, instagram va Facebook da faol bo'lib postlar orqali odamlarga mavzu haqida aytib berishingiz ham mumkin



## 3-BOSQICH: VILOYAT BOSQICHI (OKTYABR)

# NIMA QILISH KERAK?

### SHARTLAR:

Agentlar qilingan ishlari bo'yicha taqdimot o'tkazishadi va portfolio tayyorlashadi.

Bu bosqichda mahalla agentlariga birlashtirilgan mahalla bankirlari va tijorat banklari ham jalb qilinadi. Portfolio agentlar amalga oshirgan muvaffaqiyatli loyihalar soni va boshqa qilgan ishlaridan tashkil topadi.

### TALABLAR:

taqdimot ikki qismdan iborat:

**Birinchi qismida** - 5 daqiqa vaqt beriladi, bunda 2025 yil may-avgust oylarida agentlar va mahalla bankirlari qilingan ishlarni video yoki Power Point shaklida taqdimot qilishadi. Taqdimot kreativ tarzda bo'lishi kutiladi.

**Ikkinchi qismida** - 3 daqiqa vaqt beriladi, bunda mahallada amalga oshiriladigan kelgusi rejalar haqida gapiriladi. Taqdimot video shaklida yoki Power Point shaklida bo'lishi mumkin.



## **3-BOSQICH: VILOYAT BOSQICHI (OKTYABR)**

### **QANDAY BAHOLANADI? BAHOLASH MEZONLARI (MAKSIMAL 32 BALL):**

- ishlar mazmuni – 10 ball;
- taqdimot sifati – 5 ball;
- rejalar aniqligi – 4 ball;
- yangi g'oyalar – 3 ball;
- mahalla ehtiyojiga moslik – 3 ball;
- kreativlik – 2 ball;
- portfolio sifati – 5 ball.

Respublika bosqichiga 208 nafar ishtirokchi o'tadi.

### **MASLAHATLAR:**

Vizual materiallar (rasmlar, diagrammalar, video lentalar) taqdimotni jozibador qiladi. Qisqa, aniq va ma'noni ochuvchi so'zlar bilan gapirishga harakat qiling, vaqtni tejang. Kelgusi rejalarni mahallaning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog'lash muhim. Masalan, aholi qaysi muammolarni ko'proq ehtiyoj qilayotganini ko'rsat-ing. Yangi g'oyalar nafaqat yangi, balki amalga oshirish uchun real va samarali bo'lishi kerak. Savollarga tayyor bo'ling, o'z taqdimotingizni yaxshi biladigan bo'ling.



# 4-BOSQICH: RESPUBLIKA BOSQICHI (NOYABR)

## NIMA QILISH KERAK?

### SHARTLAR:

- 1** Biznes reja taqdimoti (4 daqiqa)
- 2** Agentlar va mahalla bankirlari o'z banklarini taqdimot qilishadi (3 daqiqa)
- 3** Agentlar va mahalla bankirlari o'z mahallasidagi foydalanilmagan imkon va zaxiralarni ko'rsatib berishadi (3 daqiqa)
- 4** tadbirkorlarni onlayn marketpleys platformalariga ulash

### TALABLAR:

**1-shart** bo'yicha: Qiymati 30 million so'mdan oshmaydigan, uy sharoitida amalga oshirsa bo'ladigan, boshlash oson bo'lgan va yaxshi foyda keltiradigan loyihalar.

**2-shart** bo'yicha: Bankning ustun tomonlarini ko'rsatish va banklar qilgan ijtimoiy loyihalarni aytib berish.

**3-shart** bo'yicha: Foydalanilmagan imkoniyatlarni ko'rsatib berish, faktlarga asoslangan holda.

**4-shart** bo'yicha: 5 ta tadbirkorni onlayn marketpleys platformalariga ulash.

# RESPUBLIKA BOSQICHI (NOYABR)

## QANDAY BAHOLANADI? BAHOLASH MEZONLARI

(MAKSIMAL 40 BALL):

1. Loyiha rejasi mukammalligiga ko'ra 5 ballgacha, Foyda qiymati yuqoriligiga ko'ra 5 ballgacha;
2. Bankning ustun tomonlarini ko'rsata olsa 5 ball, Bankning ijtimoiy loyihalari haqida aytsa 5 ball gacha;
3. Mahallaning foydalanilmagan imkoniyatini ko'rsatib bera olsa - 10 ball;
4. Onlayn marketpleysga ulangan har bir tadbirkor uchun 2 ball, umumiy 5-ta tadbirkor uchun – 10 ball.

## MASLAHATLAR:

### 1-SHART

bo'yicha:

Loyihangiz haqida qisqa, aniq va to'liq ma'lumot bering: maqsad, ish jarayoni, kerakli resurslar, sarf-xarajat va kutilayotgan foyda. Foydani hisoblab ko'rsating (masalan: oylik yoki yillik daromad prognozlarini). Loyihaning afzalliklarini ta'kidlang — raqobatchilardan farqli jihatlar. Agar imkoniyat bo'lsa, infografika, rasm, diagramma yordamida ko'rsating. Amalga oshirish jadvalini ko'rsating (qachon va qanday qadamlar bilan ish boshlanadi).

### 2-SHART

bo'yicha:

Bank haqidagi ma'lumotingizni aniq va raqamlar bilan gapiring (misol: “2025-yilda bank 50 ta mahallada 2000 oilaga imtiyozli kredit berdi”). Bankning ijtimoiy loyihalarini jonli misollar bilan aytib bering. Agar imkon bo'lsa, bankning rasmiy materiallaridan (logotip, banner, rasmlar) foydalaning.

### 3-SHART

bo'yicha:

Mahallangizdagi bo'sh turib qolgan binolar, yerlar, odamlar malakasi, tabiiy resurslar haqida aytib bering. Mavjud ehtiyoj va imkoniyatni bog'lang: “Bizda 5 ta bo'sh tepa yer bor, uni issiqxona yoki chorvachilik fermasi uchun ishlatish mumkin”. Rasmlar, xarita, slayd yoki videolar bilan ilova qiling. Haqiqiy statistika va ma'lumotlar ishonchni oshiradi.

### 4-SHART

bo'yicha:

Tadbirkorlarni tanlashda mahsulotlari onlayn sotishga yaroqli bo'lishi kerak. Ulash jarayonini foto va video bilan hujjat qiling. Platformadagi profillarini ko'rsating va ular faoliyat boshlaganini isbotlang. Iloji bo'lsa, ularning mahsulotlaridan namunalar olib keling yoki slaydda ko'rsating.

## **SOVRINLARGA EGA BO'LING!**

**1**

**Tuman Bosqichi**

Sertifikat + Sovg'a vaucheri

**2**

**Viloyat bosqichi**

Sertifikat + Sovg'a vaucheri

**3**

**Respublika bosqichi**

Sertifikat + Sovg'a vaucheri

**4**

**Final g'oliblari**

Sertifikat + Sovg'a vaucheri

